

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov | |
| Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash..... | 198 |
| Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev | |
| Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi | 203 |
| X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova | |
| Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirit gelining bo'kishi..... | 207 |
| M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov | |
| Metanning piroлизlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari..... | 212 |
| M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev | |
| 11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri..... | 217 |
| U.Yusupaliyev, T.Amirov | |
| Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari | 222 |
| N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova, | |
| NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi | 229 |
| I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov | |
| Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili | 237 |
| F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova | |
| Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi | 240 |

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

| | |
|--|-----|
| I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova | |
| <i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari | 245 |
| N.Abdullayeva, M.Davidov | |
| Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari | 250 |
| A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov | |
| Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash | 254 |
| R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova | |
| Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdonligiga ta'siri..... | 258 |
| G.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov | |
| Minerallashgan suvlар bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi | 262 |

ILMIY AXBOROT

| | |
|--|-----|
| A.Bababekov | |
| Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil) | 268 |
| S.Ruziyeva | |
| O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari | 274 |
| O.Abobakirova | |
| Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati | 278 |
| D.Nasriyeva | |
| Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida..... | 283 |
| I.Raufov | |
| O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari | 287 |
| N.Jumaniyazova | |
| O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili | 290 |
| E.Nasrullahov | |
| Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi..... | 293 |

TABIIY POLIMERLARGA SUN'YIY ERITMALARDAGI Pb (II) IONLARINING SORBSIYA KINETIKASI

КИНЕТИКА СОРБЦИИ ИОНОВ Pb (II) ИЗ ИСКУССТВЕННЫХ РАСТВОРОВ НА ПРИРОДНЫХ ПОЛИМЕРАХ

KINETICS OF SORPTION OF Pb (II) IONS FROM ARTIFICIAL SOLUTIONS ON NATURAL POLYMERS

**Xurramova Fayyoza Turg'un qizi¹, Zokirov Sardor Orif o'g'li²,
Yarmanov Sherimmat Xalillayevich³, Botirov Sunnatjon Xudoyberdi o'g'li⁴, Inxonova Arofat⁵**

¹Xurramova Fayyoza Turg'un qizi

–Magistrant, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

²Zokirov Sardor Orif o'g'li

–Stajyor-tadqiqotchi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

³Yarmanov Sherimmat Xalillayevich¹

–Tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun Akademiyasi

⁴Botirov Sunnatjon Xudoyberdi o'g'li

–Tayanch doktorant, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

⁵Inxonova Arofat

–Tayanch doktorant, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Uzbekistan, Tashkent.

⁶Bekchanov Davronbek Jumazarovich

–k.f.d. dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

Annotatsiya

Ushbu ishda biologik chiqindi polimer hisoblangan soch tolalariga sun'iy eritmalar tarkibidagi qo'rg'oshin ionlarini yutilish kinetikasi o'rganilgan. Bunda psevdo-birinchi va ikinchi tartibli kinetik modellar yordamida kinetika o'rganilgan bo'lib, olingan natijalar faollangan soch tolalariga Pb(II) ionlarini yutilishi psevdo-ikkinchi tartibli kinetik modelga bo'yushinishini ko'satadi. Qo'rg'oshin maksimal yutilish sig'imi 76,125 mg/g ni tashkil qilgan. Muvozanat holatidagi adsorbsiya mechanizmini ifodalash uchun Lengmyur va Freundlich izoterma modellaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida hisoblab topilgan izoterma parametrlari ($R^2=0,9333$ va $R^2=0,9281$) qiyati barcha izoterma modellariga mos kelganligi aniqlandi. Freundlich parametrlari qiyamatiga ko'ra $n=2,74$ bo'lib, bu esa sorbsiya yuqori darajada borganligini ko'satadi. Lengmyur tenglamasi bo'yicha korrelatsion koeffitsiyenti R^2 qiyati Pb(II) ionlari uchun 0,9333 ga teng va konsentratsiya o'zgarishi adsorbsiya jarayoni Lengmyur monomolekulayr adsorbsiya nazariyasiga bo'yushinishini (R_L - quay bo'lishi) ko'satadi. Bu esa faollangan soch tolalariga Pb(II) ionlari sorbsiyalanishini ko'satadi.

Аннотация

В данной работе изучена кинетика сорбции ионов свинца (II) из искусственных растворов на волокнами волос, которые являются биологический отходным полимеров. В данном случае кинетика изучалась с использованием кинетических моделей псевдо-первого и второго порядка, и результаты показали, что поглощение ионов Pb(II) в активированных волосяных волокнах подчиняется кинетической модели псевдо-второго порядка. Максимальная адсорбционная способность свинца составила 76,125 мг/г. Для представления механизма адсорбции при равновесии использовались изотермические модели Ленгмюра и Фрейндлиха. На основании полученных результатов было установлено, что значения расчетных параметров изотермы ($R^2=0,9333$ и $R^2=0,9281$) соответствуют всем моделям изотерм. Значение параметра Фрейндлиха равно $n = 2,74$, что указывает на высокую сорбцию. Согласно уравнению Ленгмюра коэффициент корреляции R^2 для ионов Pb(II) равен 0,9333, а изменение концентрации свидетельствует о том, что процесс адсорбции подчиняется Ленгмюровской теории мономолекулярной адсорбции (R_L). Это указывает на сорбцию ионов Pb(II) активированными волокнами волос.

Abstract

In this work, we studied the sorption kinetics of lead (II) ions from artificial solutions on hair fibers, which are biological waste polymers. In this case, the kinetics were studied using pseudo-first and second-order kinetic models, and the results showed that the uptake of Pb (II) ions in activated hair fibers follows a pseudo-second order kinetic model. The maximum adsorption capacity of lead was 76.125 mg/g. The isothermal models of Langmuir and Freundlich were used to represent the mechanism of adsorption at equilibrium. Based on the results obtained, it was found that the values of the calculated isotherm parameters ($R^2=0.9333$ and $R^2=0.9281$) correspond to all isotherm models. The value of the Freundlich parameter is $n=2.74$, which indicates a high sorption. According to the Langmuir equation, the correlation coefficient R^2 for Pb(II) ions is 0.9333, and the change in concentration indicates that the adsorption process obeys the Langmuir theory of monomolecular adsorption (R_L). This indicates the sorption of Pb(II) ions by activated hair fibers.

KIMYO

Kalit so'zlar: Qo'rg'oshin ionlari(Pb^{2+}), adsorbent, soch tolasi, kinetika, psevdo-birinchi tartib, psevdo-ikkinchi tartib, Lengmyur, Freundlich va izoterma.

Ключевые слова: Ионы свинца (Pb^{2+}), адсорбент, волосяное волокно, кинетика, псевдо-первый порядок, псевдо-второй порядок, Ленгмюр, Фрейндлих и изотерма.

Key words: Lead ions (Pb^{2+}), adsorbent, hair fiber, kinetics, pseudo-first order, pseudo-second order, Langmuir, Freundlich and isotherm.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyoda aholi sonining ortib borishi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bu esa o'z navbatida aholi o'tasida suv tanqisligini keltirib chiqarishi dunyo miqyosida tan olingen muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ko'pgina davlatlarda sanoat va boshqa iste'mol sohalari suvdan foydalanishni kamaytirishlari lozim. Shu sababli texnik va oqava suvlarni qayta sirkulyatsiya qilish, o'z navbatida ular tarkibidagi og'ir metallarni ajratish va qaytarish katta ahamiyat kasb etadi [1]. Sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindi suvlari tarkibidagi og'ir metallar ba'zi organik birikmalar bilan solishtirilganda ularning odam organizmi tirk to'qimalarida to'planishga moyil bo'lib, turli xil organlarga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan turli xil sintetik adsorbentlardan farqli ravishda tabiiy biosorbentlardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Qimmatbaho metallarni adsorbsiyalash uchun o'simlik barglari va meva qobiqlaridan bio-sorbent sifatida foydalanilgan. Ko'pchilik bio-sorbentlar ekologik jihatdan qulay bo'lishi mumkin, ammo saqlash muddati bo'yicha muammo tug'diradi. Shu sababli turli xil tadqiqotlarda bio-sorbentlarni kimyoviy modifikatsiya qilish orqali turli muammolarni bartaraft etishga erishilgan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bio-adsorbentlardan yana biri selektivligi yuqori bo'lgan adsorbentlar soch tolalaridir. Soch tolalari ekologik jihatdan toza, ishchi holatga keltirish oson va arzonligi bilan ajralib turadi [3]. Uning tarkibida ko'plab aminokislotalar, polifenollar va oqsillar mavjud bo'lib, xususan oqsillarning to'liq gidrolizlanishi natijasida 13-18% sistein aminokislotsasi mavjudligi ko'rsatilgan [4]. Ba'zi tadqiqotlarda soch tarkibidagi L-sistin aminokislotsasi va L-sistein aminokislotsasining mavjudligi sababli sochning hech qanday kimyoviy o'zgartirishsiz ham qimmatbaho metallarni chiqindi suvlar tarkibidan tozalash uchun yaxshi adsorbent bo'la olishi keltirilgan. Soch tabiatda miqdor jihatdan ko'p va barqaror. Shuningdek o'ziga xos selektivlikka va mukammal adsorbsiyaga ega biosorbent bo'la oladi [5].

Oqava suvlari tarkibida eng ko'p uchrovchi og'ir zaharli metallarga qo'rg'oshin, kadmiy, xrom, nikel, mis, kumush va rux kabi metallar misol bo'ladi. Oqava suvlarga ko'p miqdorda og'ir metallarni chiqarish salomatlik va atrof-muhit uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu oqava suvlarni tozalash xarajatlarini ortishiga ham olib keladi. Shuningdek og'ir metallar oz miqdorda tabiatda ham uchrab changli shamollar, o'rmon yong'inlari kabi omillar yordamida suv tizimlariga tushishi mumkin. Ularning atrof muhitda paydo bo'lishi va to'planishi bevosita va bilvosita inson omili tufayli bo'lib, yuqori sur'atda sanoatlashish, urbanizatsiya va antropogen omillar hisobiga sodir bo'lmoqda [6].

Sanoat miqyosida og'ir metallarni tozalashning cho'ktirish, bug'latish, suyuqlik-suyuqlik ekstraksiyasi, ionalmashinuvchi sorbentlar, qaytar osmos va elektrodializ kabi usullardan foydalaniladi. Bular orasida tabiiy va sintetik sorbentlar asosidagi sorbsiya usullari katta miqdordagi oqava suvlari tarkibidagi kichik konsentratsiyadagi ekotoksikantlar, xususan og'ir metallarni yutishi bilan qolgan usullardan ustun hisoblanadi. So'nggi yillarda og'ir va nodir metallarni boyitishga asoslangan sanoat obyektlarida ionalmashinuvchi sorbentlarga asoslangan sorbsion texnologiyalar keng qo'llanilmoqda [7].

Ushbu ishda adsorbsiya kinetikasi psevdo-birinchi tartibli va psevdo-ikkinchi tartibli kinetik modeldar yordamida tadqiq etildi [8].

Psevdo-birinchi tartibli kinetik model

Bu model quyidagi tenglama yordamida ifoda etiladi:

$$\log(q_e - q_t) = \log q_e - \frac{k_1}{2,303} t$$

Ushbu tenglamada q_t va q_e Pb(II) ionlarining berilgan vaqtidagi va muvozanat holatidagi miqdori ($\text{mg}\cdot\text{g}^{-1}$), k_1 esa birinchi tartibli sorbsiya jarayonining tezlik konstantasi (min^{-1}) [9].

Psevdo-ikkinchi tartibli kinetik model

Bu model quyidagi tenglama yordamida ifoda etiladi:

$$\frac{t}{q_t} = \frac{1}{k_2 \cdot q_e^2} + \left(\frac{1}{q_e} \right) t$$

Boshlang'ich sorbsiya tezligi ($t=0$) quyidagicha topiladi:

$$h = k_2 \cdot q_e^2$$

Ushbu tenglamada: k_2 tezlik konstantasi, q_e esa sorbentga yutilgan qo'rg'oshin ionlarining miqdori ($\text{mg} \cdot \text{g}^{-1}$), t -vaqt (minut).

Lengmyur izotermasi modeli

Quyidagi tenglama bilan ifodalanadi [10].

$$q_e = q_{\max} \frac{K_L C_e}{1 + K_L C_e}$$

Bu yerda q_e –ma'lum massali sorbentga yutilgan metal midqdori: ($\text{mg} \cdot \text{g}^{-1}$), C_e – eritmning muvozanat konsentratsiyasi ($\text{mg} \cdot \text{l}^{-1}$), q_{\max} – ma'lum massali sorbentga yutilgan metalning maksimal miqdori ($\text{mg} \cdot \text{g}^{-1}$).

Lengmyur izotermasi parametrlarining muxim xususiyati bo'lgan ajratish koeffitsiyenti " R_L " yordamida adsorbent va adsorbat o'rtaqidagi munosabat xaqida xulosa chiqarish mumkin.


$$R_L = \frac{1}{1 + K_L \cdot C_0}$$

Bu tenglamaga ko'ra $0 < R_L < 1$ adsorbsiya jarayoni qulay, $R_L > 1$ noqulay, $R_L = 1$ adsorbsiya izotermasi chiziqli ko'rinishda deb hisoblanadi va $R_L = 0$ esa adsorbsiyani qaytmas bo'lishini ifodalaydi.

Lengmyur konstantasini (K_L) topish uchun lengmyur tenglamasini (2) quyida keltirilgan chiziqli ko'rinishidan foydalilanadi.

$$\frac{C_e}{q_e} = \frac{1}{q_e K_L} + \frac{1}{q_{\max}} \cdot C_e$$

q_{\max} va K_L qiymatlari C_e/q_e ning C_e ga bog'liqlik grafigidan aniqlanadi.



1-rasm. Pb^{2+} ionlari uchun Lengmyur izotermasi.

Yuqorida keltirilgan 1-rasmida faollangan soch tolalariga xona haroratida Pb^{2+} ionlarining sorbsiya jarayoni uchun Lengmyur izotermasi konstantalari hisoblandi.

Ekstrapolyatsiya chizig'ining ordina o'qi bilan kesishgan qismi quydagiga teng:

$$\frac{1}{q_{\max} K_L}$$

To'g'ri chiziqning tangens burchak qiymati esa quyidagiga teng:

KIMYO

$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{1}{q_{\max}} \quad \text{yoki} \quad \operatorname{ctg} \alpha = q_{\max}.$$

Freundlix izoterma modeli


Quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$q_e = K_F C_e^{1/n}$$

Freundlix izoterma tenglamasi yordamida turli eritmalarda (ideal bo'limgan) boradigan sorbsiya jarayonlarini o'rganish mumkin. Ushbu modelning chiziqli tenglamasini quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\log q_e = \log K_F + \left(\frac{1}{n} \right) \log C_e$$

Bu tenglamada q – ma'lum massali sorbentga yutilgan metall ionlarining miqdori ($\text{mg} \cdot \text{g}^{-1}$). K_F – Freundlix konstantasi, C_e eritmaning muvozanat kontsentratsiyasi ($\text{mg} \cdot \text{g}^{-1}$), $1/n$ – sorbsiya intensivligi. Freundlix konstantalari K_F va n ($n \approx 1-10$) qiymatlarini $\log q_e$ bilan $\log C_e$ chiziqli grafigida kesishish egrisining burchak qiymati orqali topiladi.



2-rasm. Pb^{2+} ionlari uchun Freundlix izotermasi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu ishda soch tolalarining Pb^{2+} ionlarining sun'iy eritmalarida sorbsiyasi o'rganildi. Buning uchun soch tolalari NaOH ning 0,1 M li eritmasida yuvildi va $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$ ning 0,025 M, 0,05 M, 0,075 M va 0,1 M gacha suyultirilgan eritmalarida metall ionining sorbsiyasi davomiyligi 30; 60; 90; 120; 150 va 180 minutlar oralig'ida o'rganildi. Sorbsiyadan oldingi va keyingi eritmardagi metall ionlarining konsentratsiyasining o'zgarishi spektrofotometr (Shimadzu Corporation. UV – 1900i) da o'rganildi. Tabiiy adsorbent bo'lgan soch tolalariga Pb^{2+} ionining sorbsiyasi psevdo birinchi va psevdo ikkinchi modellari bo'yicha kinetik ko'rastkichlari hisoblab topildi va natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

| Sorbent | Metall ionlari | Dastlabki kons. (mol/l) | Psevdo – birinchi tartibli | | | Psevdo – ikkinchi tartibli | | |
|---------|------------------|-------------------------|--|--|--------|--|--|--------|
| | | | Muvozanat adsorbsiya miqdori q_e ($\text{mg} \cdot \text{g}^{-1}$) | k_1 ($\text{g} \cdot \text{mg}^{-1} \text{ min}^{-1}$) | R^2 | Muvozanat adsorbsiya miqdori q_e ($\text{mg} \cdot \text{g}^{-1}$) | k_2 ($\text{g} \cdot \text{mg}^{-1} \text{ min}^{-1}$) | R^2 |
| Soch | Pb^{2+} | 0,025 | 45,254 | 0,030860 | 0,8386 | 45,254 | 0,00008765 | 0,9595 |
| | | 0,05 | 51,54 | 0,031091 | 0,7761 | 51,54 | 0,00007894 | 0,9766 |
| | | 0,075 | 65,825 | 0,029248 | 0,8837 | 65,825 | 0,00008795 | 0,9792 |
| | | 0,1 | 76,125 | 0,029478 | 0,9416 | 76,125 | 0,00008581 | 0,9974 |
| | | O'rtacha k_1 va k_2 | 0,030169 | | | | 0,00008509 | |

1-jadval. Psevdo-birinchi va ikkinchi tartibli kinetik model konstanta qiymatlari.

Ushbu jadvaldan ko'riniib turibdiki, tabiiy adsorbent hisoblangan soch tolalariga Pb^{2+} ionining sorbsiya miqdori - q_e ($mg \cdot g^{-1}$) uning dastlabki konsentratsiyasi ortishi bilan ortib borgan (bu yerda k_1 - psevdo – birinchi tartibli reaksiya tezlik konstantasi min^{-1} , R^2 -korrelatsiya koeffitsenti, k_2 - psevdo – ikkinchi tartibli reaksiya tezlik konstantasi min^{-1} , q_e -adsorbtsiya miqdori $mg \cdot g^{-1}$).

Yuqorida keltirilgan 2-rasmida aktivlangan soch tolalariga xona haroratida Pb^{2+} ionlarining sorbsiya jarayoni uchun Freundlix izotermasi konstantalari hisoblandi. Hisoblab topilgan natijalar 2-jadvalda keltirilgan:

| Ionlar | Lengmyur konstantalari | | | | Freundlix konstantalari | | |
|--------|------------------------|----------|---------|--------|-------------------------|--------|--------|
| | q_{max} | K_L | R_L | R^2 | n | K_F | R^2 |
| Pb(II) | 9,6993 | 0,000273 | 0,10474 | 0,9333 | 2,74 | 10,108 | 0,9281 |

2-jadval. Lengmyur va Freundlix konstanta qiymatlari.**XULOSA**

Olingen natijalar Pb^{2+} ionining tabiiy adsorbent sochga yutilishi psevdo – ikkinchi tartibli kinetik modelga bo'ysunganligidan dalolat beradi (mos ravishda $R^2=0,9974$). Bu esa sorbsiya jarayonlari kinetikasiga ionlar tabiatini bilan birga ionit tarkibidagi funksional guruhlarning ham ta'sir ko'rsatganligini bildiradi.

2-jadvalda sorbsiya izotermasining Lengmyur va Freundlix tenglamalari bo'yicha barcha hisoblash natijalari keltirilgan. Freundlix parametrлari qiymatiga ko'ra n=2,74 bo'lib, bu esa sorbsiya yuqori darajada borganligini ko'rsatadi. Lengmyur tenglamasi bo'yicha korrelatsion koeffitsiyenti R^2 qiymati Pb^{2+} uchun 0,9333 ga teng va konsentratsiya o'zgarishi adsorbtsiya jarayoni Lengmyur monomolekulyar adsorbtsiya nazariyasiga bo'ysunishini (R_L -qulay bo'lishi) ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rether A., Schuster M. Selective separation and recovery of heavy metal ions using water-soluble N-benzoylthiourea modified PAMAM polymers //Reactive and Functional Polymers. – 2003. – Т. 57. – №. 1. – С. 13-21.
2. Malvin Moyo, Vusumzi Emmanuel Pakade, Sekomeng Johannes Modise Biosorption of lead(II) by chemically modified Mangifera indica seed shells: Adsorbent preparation, characterization and performance assessment //Process Safety and Environmental Protection 111 (2017) 40–51
3. A.G. Ghomi, N. Asasian-Kolur, S. Sharifian, A. Golnaraghi, Biosorption for sustainable recovery of precious metals from wastewater, J. Environ. Chem. Eng. (2020) 103996, <https://doi.org/10.1016/j.jecc.2020.103996>.
4. X.H. Xu, B. Bai, H.L. Wang, Y.R. Suo, Synthesis of human hair fiber-impregnated chitosan beads functionalized with citric acid for the adsorption of lysozyme, RSC Adv. 7 (2017) 6636–6647, <https://doi.org/10.1039/C6RA26542A>.
5. Dan Yu, Shintaro, Morisada, Hidetaka, Kawakita, Koichi Sakaguchi ,Satoshi Osada, Keisuke Ohto, Katsutoshi, Inoue, Xi - Ming Song, Guolin Zhang, Ramachandra Rao Sathuluri / Gold recovery from precious metals in acidic media by using human hair waste as a new pretreatment-free green material// Journal of Environmental Chemical Engineering 9 (2021) 104724
6. Akpor O. B., Ohiobor G. O., Olaolu D. T. Heavy metal pollutants in wastewater effluents: sources, effects and remediation //Advances in Bioscience and Bioengineering. – 2014. – Т. 2. – №. 4. – С. 37-43.
7. Кинетика сорбции ионов Со (II) из растворов на анионообменника // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. Бабожонова Г.К. [и др.]. 2021. 10(88).
8. Ho Y.S, McKay G. Pseudo-second order model for sorption processes. Process Biochemistry, 1999; 34: 451–465. [https://doi.org/10.1016/S0032-9592\(98\)00112-5](https://doi.org/10.1016/S0032-9592(98)00112-5)
9. Kumar, P. S., Vincent, C., Kirthika, K., & Kumar, K. S. (2010). Kinetics and equilibrium studies of Pb^{2+} in removal from aqueous solutions by use of nano-silversol-coated activated carbon. Brazilian Journal of Chemical Engineering, 27(2), 339–346. <https://doi.org/10.1590/s0104-66322010000200012>
10. Kara, A.; Demirbel, E. Kinetic, Isotherm and Thermodynamic Analysis on Adsorption of Cr(VI) Ions from Aqueous Solutions by Synthesis and Characterization of Magnetic-Poly (divinylbenzene-vinylimidazole) Microbeads Water Air Soil Pollut(2012) 223:2387–240 doi:10.1007/s11270-011-1032-1.